

## CHET TILI O'QITISHDA DARSLIK KITOBLARINING AHAMIYATI

**Yaxyayeva Zumrad Islomovna**

*O'zbekiston Davlat Juhon tillari universiteti roman german filologiyasi fakulteti*

*amaliy fanlar kafedrasи stajyor o'qituvchi*

*Email: [zumradxon777@mail.ru](mailto:zumradxon777@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Chet tilini o'qitish metodikasi predmeti talabalar o'rtaida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadiga erishishga xizmat qiladi. Maqolada chet tilini o'qitishda darsliklarning ahamiyati va metodikasining nazariy bilimlarini tafsiflaydi.

**Kalit so'zlar:** Metodika, chet tilini o'rganish, innovatsion texnologiya, dars maqsadi.

Chet tillarni o'qitishda darsliklarning ahamiyati va o'qitish maqsadlari, jamiyat taraqqiyotiga, rivojlanishga qarab o'zgarib turadi. Chet tillarni o'qitishda darsliklarning ahamiyati juda katta bo'lib, ular chet tili o'qitish metodikasi kursini ishlab chiqarishga ta'sir qiladi. O'tgan asrning 40-50 yillarda tinglab tushunishni o'rgatish maqsadi etakchi edi, og'zaki nutq esa faqatgina shakllantirilardi. Hozir esa ular davr, jamiyat talabiga qarab o'zgaradi. Chet tillarni o'qitishda darsliklarning ahamiyati, maqsadlari o'z xususiyatiga ega bo'lib, ular o'qitish mazmuni, vositasi, metodlari va printsiplarini aniqlaydi. Chet tili o'qitishdan asosiy maqsad chet tilini amalda qullashdir. I.V.Raxmanov ustozni L.V.Sherbaning fikrini rivojlantirib o'zining "O'rta maktablarda chet tili o'qitishning ba'zi bir masalalari" maqolasida chet tili o'qitishning asosiy maqsadini belgilaydi. Uning fikricha, chet tili o'qitish va darsliklar yaratishning maqsadlari tarbiya berish va kommunikatsiya hosil qilish hamda hosil qilingan ko'nikma, malakalarni boshqa maqsadlarda ishlatishdan iborat deydi. Bu kommunikatsiya qilish, kommunikativ o'qitish maqsadlaridan ajralib turadi. Chet tilini o'qitish va darsliklar yaratishning maqsadlaridan eng birinchisi amaliy maqsaddir. Boshqa fanlar metodikasida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantruvchi maqsadlar bor, amaliy maqsad ya'ni kommunikatsiya faqat chet tillarga xos hodisadir. Kommunikatsiya, kommunikativ yoki amaliy maqsad deganda o'quvchilarga o'zgalar fikrini og'zaki va yozma tushunib qabul qilish va o'z fikrini og'zaki va yozma bayon etishni o'rgatish tushuniladi. Shunday qilib, chet tillarni o'qitish o'z oldiga: 1) amaliy yoki kommunikativ, 2) umumta'lim berish, 3) tarbiyalash, 4) rivojlantiruvchi maqsadni quyadi. Umumta'lim, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar kommunikativ maqsadni amalgalashishda sodir bo'ladi. Chet tillar o'qitish va darslik kitoblarni yaratish maqsadlari ustida 1947 yilda L.V.Sherba, 1950 yilda A.N.Monigetti, 1958 yilda I.V.Raxmanov, 1970 yilda V.S.TSetlin, 1971 yilda O.I.Moskalskaya o'z darsliklarida, qullanma va maqolalarida atroflichcha ma'lumotlar bergen. Keyingi davrda bu masala bilan I.L.Bim ham shug'ullandi. Uning fikricha, chet tili o'qitishda darsliklarning ahamiyati va ularning amaliy, tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantruvchi maqsadlarini amalgalashishda har tomonlama yondashish kerak. Amaliy maqsad bevosita kitob orqali aloka qilishga o'rgatishdir. I.L.Bim nutq faoliyatlarini tinglab tushunish,

gapishtirish, o'qish, yozish bo'yicha so'nggi erishiladigan maqsadlarga har bir paragraf (Lesson) dars turqumlari bo'yicha alohida aniq erishiladigan maqsadlariga ajratadi, darsning alohida bo'limlariga hamda har bir harakat usulini tinglab tushunish, gapishtirish, o'qish va yozuv vazifalariga bo'ladi. 11-sinfni tugatayotgan o'quvchidan inglizcha fikrni og'zaki va yozma qabul qila olish, tushuncha olish va og'zaki, yozma qaytara olishni talab qilinadi. 1988 yilda chiqgan. Hozirgi kunda darsliklar yaratish va chet tili dasturi loyihasida chet tilida og'zaki nutq va o'qishni egallash talab qilinadi. Yozuv esa yordamchi vosita bo'lib hizmat qiladi. Maktabdan yani 5-6-7 sinflardan chet tili nutq faoliyati og'zaki nutq, o'qish, yozuv ketmakestligida o'rgatiladi. 8-9-10-11 sinflarda esa o'qish, og'zaki nutq, yozuv ketmakestligida o'rgatiladi, rivojlantiriladi. O'rta umumta'lim maktab davlat standartlari va o'quv dasturlari esa o'qitishning to'rt maqsadi o'z aksini topgan. Hozirgi kunda chet tili o'qitishda ongli amaliy, ongli taqqoslash, ongli kommunikativ metodlar qullanilmoqda. Hozirgi kunda darsliklarning ahamiyati amaliy metodlari bo'yicha yaratilgan ingliz tili darsliklari rus maktablarida keng qullanilayapti. O'zbek maktablari uchun yaratilgan Fly High, English matters darsliklarini ongli - taqqoslash metodi bo'yicha ishlab chiqilgan. Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta'lim berish jarayonini ezgulik ko'prigiga o'xshatamiz, bu ko'priordan o'quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o'tish ustozni, ya'ni o'qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun maktablarda chet tillarni o'qitishda darsliklarning ahamiyati juda katta rol o'ynaydi. Fanlar darsligini yaratayotgan yaratuvchilar uchun qaysidir ma'noda ushbu darslikni o'qiydigan bolalarning omadi kelgan, deb aytgan bo'lardim. Fanni qandaydir imtihondan o'tib olish uchun o'rgangandan ko'ra, haqiqiy qiziqish nuqtayi nazaridan o'rganish anchayin samarali.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. - T. 1996
2. T.Madumarov, M.Kamoldinov " Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim - tarbiya jarayonida qullah." T - 2012
3. Siddikova I.A. Metodika prepodovaniya angliyskogo yazika. T. 2002
4. Saydaliev S. CHet til o'qitish metodikasidan ocherklar. - N. 2004
5. Prakticheskiy kurs metodiki prepodavaniya inostrannix yazikov. - M